

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

TEMPERAMENT THEORY AND GRAPHIC ACTIVITY ORGANIZATION BASED ON INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS: IN THE CONTEXT OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY, AND ART THERAPY

Imomov Fozil Shakarbek ogli

Trainee Lecturer, Department of Art Studies,
Gulistan State Pedagogical Institute
E-mail: fozilimomov68@gmail.com

Abstract. This article examines the interrelation between temperament theory and the psychology of graphic activity. The study analyzes how individual psychological characteristics, such as emotional reactivity, attention stability, and creative activity, manifest during graphic tasks. Furthermore, it explores the potential of temperament-adapted graphic exercises to enhance students' creative potential, enrich emotional expression, and improve the effectiveness of the educational process. The findings of this study contribute to the development of personalized approaches in pedagogy, psychology, and art therapy.

Keywords: temperament, graphic activity, creative development, psychological characteristics, pedagogical approach, art therapy.

TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA

Imomov Fozil Shakarbek o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti
San'atshunoslik kafedrası stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada temperament nazariyasi va grafik faoliyat psixologiyasining o'zaro bog'liqligi o'rganiladi. Tadqiqotda temperamentning individual psixologik xususiyatlari: hissiy reaktivlik, diqqat barqarorligi va ijodiy faollikka ta'siri – grafik faoliyat jarayonida qanday namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Shuningdek, temperamentga moslashtirilgan grafik mashqlar orqali o'quvchilarning ijodiy potensialini rivojlantirish, hissiy ifodani boyitish va pedagogik jarayon samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari pedagogika, psixologiya va san'at terapiyasi sohalarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: temperament, grafik faoliyat, ijodiy rivojlanish, psixologik xususiyatlar, pedagogik yondashuv, san'at terapiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N58>

Kirish. Grafik faoliyat insonning ichki psixologik holatini, hissiy kechinmalari va kognitiv jarayonlarini vizual ifoda orqali namoyon etishning muhim va ko'p qirrali shakli sifatida pedagogika, psixologiya hamda san'atshunoslik fanlarida alohida ilmiy qiziqish uyg'otib kelmoqda. Ushbu faoliyat shaxsning ijodiy potensialini yuzaga chiqarish, estetik tafakkurini rivojlantirish va individual hayotiy tajribasini ramziy-obrazli vositalar orqali ifodalash imkonini beruvchi samarali mexanizm sifatida talqin etiladi. Grafik faoliyat jarayonida inson

nafaqat tashqi borliq hodisalarini aks ettiradi, balki o'zining ichki dunyosi, hissiy holati, kayfiyati va subyektiv munosabatlarini ham chiziq, shakl va ranglar vositasida ifodalaydi. Bu holat grafik faoliyatni shaxsning ichki psixologik jarayonlarini bilvosita anglash va tahlil qilish imkonini beruvchi muhim kommunikativ vosita sifatida baholashga asos bo'ladi [2:45]. Grafik faoliyatning ta'lim jarayonidagi ahamiyati shundan iboratki, u shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvni amalda tatbiq etish imkonini beradi. O'quvchilar grafik faoliyat orqali o'z qiziqishlari, individual xususiyatlari va psixologik holatini erkin namoyon eta oladi. Natijada pedagog o'quvchilarning ichki imkoniyatlarini aniqlash, ularning ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish imkoniga ega bo'ladi. Shu jihatdan grafik faoliyat o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash, ularni rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi yetakchi ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv doirasida o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini, xususan temperament tiplarini hisobga olish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi. Temperament nazariyasi va ijodiy faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda turli nuqtai nazarlardan tahlil qilingan.

Temperament muammosiga oid dastlabki ilmiy qarashlar antik davr olimlari Gippokrat va Galen nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular inson xulq-atvori va psixologik holatini biologik omillar bilan izohlashga uringanlar. Mazkur tipologiya zamonaviy psixologiya tomonidan to'liq qabul qilinmagan bo'lsa-da, shaxsning faoliyat jarayonidagi individual farqlarini tushuntirishda nazariy asos sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Keyingi davrlarda temperament masalasi I.P.Pavlov tomonidan oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limot doirasida chuqurroq ilmiy asosda yoritildi. Pavlov temperamentni nerv jarayonlarining kuchi, muvozanati va harakatchanligi bilan bog'lab izohlab, uni shaxs faoliyatining dinamik xususiyatlarini belgilovchi muhim omil sifatida talqin etdi.

Temperament va ijodiy faoliyat o'rtasidagi munosabat masalasi san'at psixologiyasi doirasida ham alohida tadqiq etilgan. V. Lowenfeld va W. Brittain o'z tadqiqotlarida tasviriy faoliyatni shaxsning psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim vosita sifatida baholab, ijodiy jarayon davomida bolalarning hissiy holati va individual xususiyatlari yaqqol namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, grafik faoliyat shaxsning ichki dunyosini erkin ifodalash imkonini beruvchi psixologik mexanizm bo'lib, u temperament bilan bevosita bog'liqdir.

Ijodkorlik va individual farqlar masalasiga bag'ishlangan R.J.Sternberg va T.Lubart tadqiqotlarida shaxsning ijodiy faoliyatdagi muvaffaqiyati kognitiv, emotsional va motivatsion omillarning o'zaro uyg'unligi bilan izohlanadi. Mazkur yondashuv temperamentning ijodiy jarayondagi regulativ rolini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, J.Strelyau tomonidan ishlab chiqilgan regulativ temperament nazariyasi shaxs faoliyatida temperamentning moslashuvchanlik va o'zini boshqarish bilan bog'liq jihatlarini yoritib beradi. Bu nazariya grafik faoliyatni tashkil etishda individual yondashuv zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham chizmachilik va tasviriy san'at ta'limida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv masalalari keng yoritilgan. Jumladan, chizmachilik fanining o'quvchilarning shaxsiy va ijodiy rivojiga ta'siri, grafik faoliyatning didaktik va psixologik

imkoniyatlari alohida ta'kidlanadi. O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda grafik mashqlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, estetik didi va emotsional barqarorligini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi qayd etilgan.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, temperament va grafik faoliyat o'rtasidagi bog'liqlik masalasi ko'plab tadqiqotlarda fragmentar tarzda yoritilgan bo'lib, ularning aksariyatida nazariy yondashuvlar ustunlik qiladi. Temperament tiplariga moslashtirilgan grafik faoliyatni tizimli pedagogik model sifatida ishlab chiqish masalasi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Ayniqsa, pedagogika, psixologiya va san'at terapiyasi integratsiyasi asosida grafik faoliyatni tashkil etish masalasi ilmiy izlanishlar doirasida dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot mavjud ilmiy manbalarni umumlashtirish, temperament nazariyasini grafik faoliyat jarayoniga tatbiq etish va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilganligi bilan avvalgi tadqiqotlardan farq qiladi. Adabiyotlar tahlili natijalari grafik faoliyatni tashkil etishda individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ilmiy asosda tasdiqlaydi hamda ushbu yo'nalishda kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish ehtiyojini yuzaga chiqaradi.

Muhokama. Pedagogik amaliyot va ilmiy kuzatishlar natijalari grafik faoliyatning o'quvchilarning emotsional holatini barqarorlashtirish, ichki taranglikni kamaytirish hamda diqqat va tasavvur jarayonlarini faollashtirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi. Olingan natijalar tasviriy faoliyat jarayonida erkin ifoda imkoniyatining mavjudligi o'quvchilarga o'z ichki kechinmalarini ochiq va tabiiy tarzda namoyon etish imkonini berishini tasdiqlaydi. Bu holat o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish va o'zini namoyon etish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bevosita bog'liq ekanligi bilan izohlanadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, vizual ifoda vositalari orqali tashkil etilgan grafik faoliyat o'quvchilarning emotsional tajribasini boyitadi va ularning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, grafik faoliyat faqat badiiy-ijodiy vazifani emas, balki psixologik qo'llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi funksiyani ham bajaradi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari grafik faoliyatni samarali tashkil etishda individual psixologik xususiyatlarni, ayniqsa shaxsning temperament tipini hisobga olish zarurati tobora dolzarb bo'lib borayotganini ko'rsatdi.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, temperament o'quvchilarning faoliyat sur'ati, hissiy javoblari, diqqat barqarorligi va ijodiy yondashuvini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, u grafik faoliyat jarayonida bevosita namoyon bo'ladi. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarning tahlili grafik faoliyat va individual psixofiziologik xususiyatlar, xususan temperament o'rtasidagi bog'liqlik masalasi ko'pincha fragmentar va nazariy darajada yoritilganini ko'rsatadi. Bu holat mazkur yo'nalishda kompleks ilmiy izlanishlarni kengaytirish hamda nazariy qarashlarni amaliy pedagogik tajriba bilan uyg'unlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Grafik faoliyat va temperament o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni muhokama qilish ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning ijodiy va psixologik imkoniyatlarini to'liq ochish hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, grafik faoliyatni faqat badiiy jarayon sifatida emas, balki shaxsning psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi muhim pedagogik vosita sifatida ko'rib chiqish ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi.

Temperamentning mohiyatiga oid ilmiy qarashlar muhokamasi shuni ko'rsatadiki, u shaxsning tug'ma psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, hissiy reaktivlik, faoliyat sur'ati, diqqat barqarorligi va emotsional javoblarning intensivligini belgilaydi. Temperamentning biologik asosga egaligi uni hayot davomida shakllanadigan xarakterdan farqlaydi va psixik jarayonlarning kechish dinamikasini aniqlovchi omil sifatida namoyon etadi. Shu sababli temperament ijodiy va grafik faoliyatda individual farqlarning yuzaga chiqishida muhim rol o'ynaydi.

Klassik temperament tipologiyasi (xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolik) zamonaviy psixologiya tomonidan tanqidiy qayta ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, muhokama natijalari ushbu tasnifning amaliy ahamiyati saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, ijodiy faoliyatni tahlil qilishda temperament turlari shaxsning psixologik holati, hissiy ifodasi va faoliyat dinamikasini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [1:52].

Muhokama davomida temperamentning grafik faoliyatga ta'siri chizmachilik jarayonidagi harakat tezligi, chiziqlarning xarakteri, kompozitsion yechimlarning tuzilishi va rang tanlash uslubida namoyon bo'lishi aniqlandi. Xususan, xolerik temperament vakillarida grafik ishlarning dinamikligi va keskinligi, sangvinik shaxslarda ijodiy erkinlik va o'zgaruvchanlik, flegmatiklarda aniqlik va tartiblilik, melanxoliklarda esa hissiy chuqurlik va ramziy ifoda ustunligi kuzatiladi. Bu holatlar temperamentning grafik faoliyatdagi individual ifodalanish mexanizmlarini yaqqol tasdiqlaydi.

Shuningdek, I.P.Pavlov tomonidan ishlab chiqilgan oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limot nuqtai nazaridan qaralganda, temperament nerv jarayonlarining kuchi, muvozanati va harakatchanligi bilan bog'liq holda izohlanadi. Ushbu yondashuv grafik faoliyat jarayonida shaxsning qat'iyati, chidamliligi, faoliyat sur'ati va ijodiy moslashuvchanligini ilmiy asosda tushuntirish imkonini beradi. Demak, muhokama natijalari temperament va grafik faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni pedagogik va psixologik jihatdan asoslash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nerv tizimi xususiyatlarining muvozanatli va moslashuvchan bo'lishi chizmachilik faoliyatini samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Bunday psixofiziologik holat grafik faoliyat jarayonida erkinlik, intizom va ijodiy barqarorlikni ta'minlab, o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga sharoit yaratadi [4:9]. Kuzatishlar shuni tasdiqladiki, nerv jarayonlari muvozanatli bo'lgan o'quvchilar ijodiy jarayonni ongli ravishda boshqara oladi va grafik faoliyatda barqaror hamda samarali natijalarga erishadi.

Olingan natijalar pedagogik jarayonda o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini, xususan temperament tiplarini hisobga olgan holda metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Temperamentga moslashtirilgan chizmachilik metodikasi o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishi, psixologik qulaylikni ta'minlashi hamda ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini sezilarli darajada yuksaltirishi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida zamonaviy psixologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatdiki, temperamentning individual faoliyatdagi namoyon bo'lish mexanizmlari, jumladan, genetik asoslar va shaxsning o'zini o'zi boshqarish qobiliyati grafik faoliyatda muhim regulativ rol o'ynaydi. J.Strelyau tomonidan ilgari surilgan regulativ yondashuvga asoslangan holda, temperament grafik faoliyatni nafaqat estetik-ijodiy jarayon, balki o'zini o'zi boshqarish, qaror qabul qilish va individual ijodiy uslubni shakllantirish bilan bog'liq tizim sifatida namoyon

bo'lishi aniqlashtirildi [5:3]. Ushbu yondashuv grafik faoliyatni tashkil etishda individual metodik strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, temperament va grafik faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik pedagogik jarayonlarni optimallashtirish, san'at terapiyasi usullarini takomillashtirish hamda shaxsiy rivojlanish yo'nalishlarida amaliy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan chizmachilik metodikasi ta'lim jarayonining moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan modelini shakllantirishga yordam berishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari temperamentga moslashtirilgan grafik mashqlar o'quvchilarning ijodiy faolligini sezilarli darajada oshirishini, stress va emotsional taranglikni kamaytirishini hamda o'quv motivatsiyasini kuchaytirishini ko'rsatdi [10:22; 11:356]. Psixodiagnostik usullar orqali o'quvchilarning temperament xususiyatlarini aniqlash va shunga mos metodik yondashuvni tanlash chizmachilik darslarining samaradorligini oshirishi qayd etildi.

Shuningdek, temperament tiplariga mos grafik topshiriqlarni qo'llashning samaradorligi aniqlashtirildi. Jumladan, xolerik o'quvchilar uchun erkin mavzular, katta formatli qog'oz va rangli materiallardan foydalanish ularning energiyasini konstruktiv yo'naltirishga xizmat qilgani kuzatildi [12:51]. Sangvinik temperament vakillarida turli texnikalar bilan tajriba qilish ijodiy qiziqish va eksperimental fikrlashni rivojlantirdi. Flegmatik o'quvchilarda esa aniq strukturalangan vazifalar va batafsil chizmalar bilan ishlash diqqat barqarorligi va izchillikni kuchaytirdi [13:7]. Melanxolik temperament vakillarida yumshoq, ramziy ifoda vositalari orqali bajarilgan grafik ishlar hissiy chuqurlik va ma'nodorlikning oshishiga olib keldi [15:6986].

Bundan tashqari, grafik faoliyatning psixokorreksion va terapevtik imkoniyatlari ham tadqiqot davomida tasdiqlandi. Chizmachilik san'at terapiyasi vositasi sifatida qo'llanilganda o'quvchilarning hissiy barqarorligi mustahkamlanishi, ichki ziddiyatlar yumshashi va psixologik muvozanat tiklanishi kuzatildi. Bu esa grafik faoliyatni ta'lim va psixologik amaliyotda shaxsning hissiy va kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi samarali vosita sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa. Temperament nazariyasi va grafik faoliyat psixologiyasining integratsiyasi pedagogika, psixologiya va san'at sohalarida yangi ilmiy va amaliy yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Temperament xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan grafik faoliyat o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ijodiy potensialini to'liq ochish, hissiy ifodaning boy va murakkab shakllarini namoyon etish, shuningdek ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Bu yondashuv pedagogik amaliyotda shaxsga yo'naltirilgan metodikalarni ishlab chiqish va har bir o'quvchining individual psixologik profiliga moslashtirilgan mashqlarni joriy etishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, kelgusidagi tadqiqotlar grafik faoliyatning ta'limiy, terapevtik va rivojlantiruvchi funksiyalarini yanada chuqurroq o'rganishga qaratilishi lozim. Xususan, psixodiagnostik va eksperimental metodlardan foydalanib, temperament va ijodiy faoliyatning o'zaro bog'liqligi, shuningdek individual ijodiy uslubning shakllanish mexanizmlari kengroq tahlil qilinishi tavsiya etiladi. Bu esa nafaqat chizmachilik metodikasini mukammallashtirish, balki san'at terapiyasi, psixologik rivojlanish va pedagogik jarayonlarni individual yondashuv asosida optimallashtirish imkonini yaratadi. Natijada, o'quvchilarning ichki dunyosi, hissiy va

kognitiv jarayonlari, shuningdek ijodiy potentsiali yanada samarali rivojlantiriladi, pedagogik va terapevtik amaliyotlar esa ilmiy asoslangan, strukturaviy va tizimli shaklga ega bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ruqiya, A. (2020). Temperament va ijodkorlik psixologiyasi. O'zbekiston psixologiya jurnali, 3(2), 45-59.
2. Lowenfeld, V., & Brittain, W.L. (1987). Creative and Mental Growth. Macmillan.
3. Holland, J.L. (1997). Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments (3rd ed.). Psychological Assessment Resources.
4. Sternberg, R.J., & Lubart, T.I. (1999). The Concept of Creativity: Prospects and Paradigms. In R.J. Sternberg (Ed.), Handbook of Creativity (pp. 3-15). Cambridge University Press.
5. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo." 2025,
6. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "SCIENTIFIC APPROACHES TO ENHANCING TEACHER COMPETENCE IN FINE ARTS CLASSES." CONFERENCE OF INNOVATIVE HORIZONS IN SCIENCE & ENGINEERING. Vol. 1. No. 2. 2025.
7. Bolbekovich, N. B. . (2024). Structure of Professional Competence Development of Future Fine Art Teachers: Integration of Technology, Method and Competence. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 5(3), 12. <https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.42>
8. Imomov Fozil Shakarbek o'g'li. (2025, октябрь 24). MUHANDISLIK TA'LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17433530>.
9. Allaberdievich U. B. INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDA QO 'LLANILISHI //CONFERENCE OF INNOVATIVE HORIZONS IN SCIENCE & ENGINEERING. – 2025. – T. 1. – №. 2. – C. 81-86.
10. Имомов Ф. CHIZMACHILIK FANINING O 'QUVCHILARNING SHAXSIY RIVOJIGA TA'SIRI //Свет науки. – 2025. – №. 10 (45).
11. Odiljon I., Gulnoza H. TALABALARNI CHIZMACHILIK DARSLARIDA IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O 'RGATISH //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 355-358.
12. Alimjanovna Y. S. TOOLS AND CRITERIA OF COMPOSITION IN THE CREATIVE PROCESS OF FINE ARTS CLASSES OF UNIVERSITY SCHOOLS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2024. – T. 5. – №. 02. – C. 48-58.
13. Khayrov Rasim., Inoyatov O.S., Nuralieva Z.A., Xudoyberdiev D.R., Mirzaqulov I.X. APPLICATION OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS. <https://cahiersmagellanes.com/index.php/CMN/article/view/1033/833>.
14. Zolimkhan, K. (2024) "Training Future Fine Arts Teachers In The Context Of Digitalization", American Journal of Social and Humanitarian Research, 5(12), pp. 528-537. Available at: <https://www.globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/3149>.
15. Berikbaev, Alisher Alikulovich. "Development of competence skills of art education students." International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24.4 (2020): 6984-6988.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).